

ISSN:3060-4567 Modern education and development
KORXONA BUXGALTERIYA HISOBINI YURITILISHIDA
HISOB SIYOSATINI SOLIQ SIYOSATI BILAN FARQLI TOMONLARI

Umrzakov Dilshodbek Xakimovich

Namangan muhandislik-qurilish institute o‘qituvchisi

Annotatsiya: Hisob siyosati va soliqlar o‘rtasidagi munosabatlar biznes faoliyatiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Hisob siyosati moliyaviy hisobotlarni shakllantirsa, soliqlar yesa korxonaning majburiyatlarini belgilaydi va ularning o‘zgarishlari moliyaviy rejalashtirish va soliq to‘lash jarayonini ta’sir qiladi.

Kalit so‘zlar: boshqaruv hisobi, hisob siyosati, moliyaviy hisobotlar, moliyaviy hisobotning milliy standartlari, moliyaviy hisobotlarga tushuntirishlar, boshqaruv qarorlari.

Аннотация: В статье исследованы вопросы управленческого учета и их отражения в учетной политике предприятия.

Ключевые слова: управленческий учет, учетная политика, финансовая отчетность, национальные стандарты бухгалтерского учета, пояснения к финансовым отчетам, управленческие решения.

Korxonaning hisob siyosati ushbu tashkilotda hisob qanday tuzilganligi haqida to‘liq tasavvurni beradigan tarzda tuzilishi kerak. Shuning uchun u o‘ziga quyidagi ma’lumotlarni kiritadi:

- korxona barcha operatsiyalarni aks ettirish uchun foydalanadigan schyotlar to‘g‘risidagi;
- hisob registrlari va boshlang‘ich hujjatlarning shakllari to‘g‘risidagi;
- aktivlarni tan olish uchun qanday mezonlar qo’llanilishi, qanday baholash usullaridan foydalanilishi, shuningdek amortizatsiyani hisoblash to‘g‘risidagi;
- hujjat aylanishini tashkil qilish prinsiplari to‘g‘risidagi;
- inventarizatsiyani o‘tkazish to‘g‘risidagi va hokazo.

Buxgalteriya hisobini tashkil qilish usullarini tanlashda korxona o‘z ishining o‘ziga xos xususiyatini hisobga olishi mumkin. Har bir sohada ishlarning

mavsumiyligi, ishlab chiqariladigan mahsulot hajmini o'lchash xususiyatlari va boshqalarni hisobga olgan holda opreatsiyalarni aks ettirishga o'z yondashuvi bo'lishi mumkin. Bunday holda qonun belgilangan chegaralarda muayyan tanlash erkinligiga yo'l qo'yadi.

O'zbekistonda namunasini normativ hujjatlar va metodik ko'rsatmalarda topish mumkin bo'lgan hisob siyosati buyruq yoki farmoyish bilan tasdiqlanishi kerak. Hisob siyosati korxonaning barcha bo'linmalari, shu jumladan o'z balansini tuzish huquqiga ega bo'lgan hududiy jihatdan alohida bo'lgan bo'linmalari uchun ham qabul qilinishi lozim.

Hisob siyosatining ko'zlagan maqsadi – bu hisob qoidalarini aniq va ravshan qilish. Ya'ni korxona va uning bo'linmalari umumiyligi yondashuvga ega. Hamma joyda aktivlarni baholash, amortizatsiya, turli xo'jalik operatsiyalari bir xil qoidalar asosida rasmiylashtirilishi kerak. Shunda ushbu asosga ko'ra ishonchli moliyaviy hisobot shakllantirilishi mumkin va u rahbarlarga asosli qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Hisob siyosatiga talablar

Barcha talablar 1-sonli BHMSda batafsil belgilangan. Hisob siyosatini ishlab chiqish ushbu talablar asosida yuritilishi kerak:

- Buxgalteriya hisobida, hech qanday istisnolarsiz, barcha xo'jalik operatsiyalari aks ettirilishi kerak
- Hisob o'z vaqtida, ya'ni ko'rsatilgan operatsiyalar bo'yicha pullar olinganda emas, balki ular ro'y bergan davrlarda amalga oshirilishi kerak.
- Barcha operatsiyalar pul o'lchovida aks ettiriladi.
- Moliyaviy hisobot shunday ketma-ketlikda tuzilishi kerakki, foydalanuvchilar har xil davrlar uchun o'sha bir xil ko'rsatkichlarni solishtira olishlari lozim.
- Hisob siyosati asosida shakllantirilgan moliyaviy hisobot ob'yektiv va ishonchli bo'lishi kerak va hokazo.

Izoh: ushbu savollarga standartning 16-50 bandlari bag'ishlangan, ular bilan oldindan tanishish tavsiya qilinadi.

Har bir buxgalterga kerak bo'ladigan hisob siyosatining shablonlarini taqdim etamiz

Soliq solish maqsadlari uchun hisob siyosati (bundan keyin SHS) oddiy hisob siyosatidan nimasi bilan farq qilishi jadvalda taqdim etilgan.

Ko'rsatkich	Buxgalteriya hisobi uchun hisob siyosati	Soliq hisob siyosati (SHS)
Maqsad	Korxona ishining o'ziga xos xususiyatlari asosida buxgalteriya hisobini yuritish usullarining majmuini belgilash	Soliqlarni hisoblash usullari va metodlarini belgilash
Shakl	Yozma, alohida hujjat sifatida bo'lishi shart	Yozma, umumiy holda alohida hujjat yoki bo'lim sifatida bo'lishi mumkin.
Asos	1-son BHMS	Soliq Kodeksi (77-modda)
O'zgartirishlar kiritish	1-son BHMSga_muvofiq	1-son BHMSga , shuningdek Soliq kodeksi va boshqa normativ hujjatlarga o'zgartirishlar kiritgan qonunlarga muvofiq.
Nima ta'riflanadi	Barcha operatsiyalarni rasmiylashtirish usullari	Faqat soliqlarni hisoblash va hisobotlarni shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalarni rasmiylashtirish usullari

Tasdiqlangan hisob siyosatining bo'lishi uchun korxona rahbari javobgardir. U buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonunga muvofiq, hisob siyosatini ishlab chiqishni ta'minlashi kerak. Ammo qonunda aniq kim hujjatni tayyorlashi, usullar va tamoyillarni tanlashi kerakligi aytilmagan. Amaliyotda hisob siyosatini ishlab chiqish bosh buxgalter tomonidan amalga oshiriladi, chunki ushbu masalani hal qilish maxsus bilimlarga ega bo'lishni talab qiladi. Bundan tashqari, bu masalani buxgalteriya xizmatlarini ko'rsatuvchi

kompaniyaga autsorsingga berish mumkin. Bu yoki o‘z buxgalteriya xizmatini tashkil eta olmaydigan, yoki bunday muhim hujjatlarni ishlab chiqish uchun amaldagi buxgalterining bilimlari yetishmaydigan nisbatan kichik tashkilotlarga taalluqlidir.

Agar kompaniya hujjatni ishlab chiqish bilan o‘zi mustaqil shug‘ullanadigan bo‘lsa, u holda keyinchalik hisob siyosati auditini o‘tkazish maqsadga muvofiq. Bu bir yo‘la bir nechta masalalarini hal qiladi:

- hujjatning to‘g‘ri tuzilganligini tekshirish;
- tashkilotning hisob siyosatini, uning faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlariga muvofiqligini baholash;
- xatolarni tuzatish, zarur bo‘lganda hisob siyosatiga AV baholash yoki amortizatsiya hisoblashning boshqa usullarini tanlashga qadar bo‘lgan o‘zgartirishlarni kiritish.

Ma’lumot uchun: yirik korxonalarda hisob siyosatini ishlab chiqish bilan ko‘pincha buxgalteriya va moliya xizmatlari birgalikda shug‘ullanadi. Rahbar esa shunchaki tayyor hujjatni o‘zining buyrug‘i bilan tasdiqlaydi. Muddatlar bo‘yicha buni yuridik shaxs tashkil qilingandan keyin birinchi hisobot davri davomida qilish kerak, ammo qonunda aniq sanalari ko‘rsatilmagan.

Ushbu hujjatning majburiyligi tegishli BHMS va Buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi Qonun bilan belgilangan. Biroq soliq hisob siyosati SK 77-moddasi bilan kiritilgan va **uning bo‘lmasligi jiddiy qonunbuzarlik sifatida ko‘riladi.**

Amaldagi qonunchilikka muvofiq ushbu hujjat bo‘lmaganligi uchun jarimalar BHM 5-10 baravarini tashkil qiladi (ushbu qonunbuzarlikni sodir etgan mansabdor shaxsdan). Agar takror tekshiruv chog‘ida yana hujjatning yo‘qligi aniqlansa, u holda jarima BHM 10-20 baravarini tashkil etadi.

Muhim: jarimani to‘lash qonun buzilishini bartaraf qilish zaruratidan ozod qilmaydi (Soliq kodeksining 116-moddasi). Va SHS baribir ishlab chiqishga to‘g‘ri keladi. Muhimi bunga rasmiyatchilikka qaraganday qaramaslik kerak, chunki ushbu hujjat birinchi navbatda korxonaning o‘zi uchun foydalidir.

Agar kompaniyada buxgalteriya maqsadlari uchun hisob siyosati birinchi marta qabul qilinayotgan bo‘lsa, u holda avval namunasini tahlil qilish, ushbu hujjatga qanday bandlar kirishi kerakligini tushunish uning tuzilishini o‘rganish kerak. Jadvalda asosiy bo‘limlar taqdim etilgan.

Bo‘limlar	Mohiyati
Ish uchun schyotlar rejasi	Kompaniya o‘zining operatsiyalarini aks ettirish uchun foydalanadigan schyotlar
Boshlang‘ich hujjatlarning turlari	Boshlang‘ich hujjatlarning hamma shakllari ham qonun tomonidan tasdiqlanmagan. Korxona o‘zi tasdiqlashi mumkin bo‘lganlari ham bor. Ularning namunalari ushbu hujjatga ilova qilinishi kerak.
Hisobni tashkil qilishning tuzilishi	Korxonada buxgalteriya hisobini yuritish majburiyati qanday xizmatlar (yoki xodimlar) zimmasiga yuklatilgan. Ushbu vazifalarni autsorsingga berish imkoniyatini nazarda tutish mumkin.
Korxonadagi hujjat aylanishi sxemalari	Hujjatlarni berish va ularga ishlov berish xususiyatlariga ega ushbu band hududiy jihatdan alohida bo‘linmalarga ega korxonalar uchun o‘ta muhim.
Aktivlar va majburiyatlarni baholash amalga oshiriladigan usullar	Qonunchilik talablariga muvofiq mazkur sohaga mos usul tanlanadi
Ichki hisobotlar uchun hujjatlar shakllari	Agar korxona ularni joriy qilish niyatida bo‘lsa, masalan, kichik bo‘linmalar soni ko‘p bo‘lganda
Buxgalteriya hisobini tashkil etishga ta’sir ko‘rsatuvchi boshqa elementlar	Inventarizatsiyani o‘tkazish tartibi, nazorat qilish xususiyatlari va hokazo

Soliq qonunchiligidagi soliq solish uchun hisob siyosatini shakllantirishga nisbatan talablar mavjud emas, uni ixtiyoriy ravishda ishlab chiqish mumkin. Qulay bo‘lishi uchun siz namuna sifatida buxgalteriya hisobi uchun tuzilgan hisob

siyosatidan foydalanishingiz mumkin. Soliq siyosati mustaqil hujjat sifatida tuzilishi yoki korxonaning hisob siyosatiga alohida bo‘lim sifatida kiritilishi mumkin.

Soliq solish uchun hisob siyosatining tarkibi SK 77-moddasida belgilangan. Unda quyidagi bandlar ko‘rsatilishi kerak:

Soliq to‘lovchi yoki soliq agenti tomonidan mustaqil ravishda ishlab chiqiladigan soliq registrlarining shakllari va ularni tuzish tartibi, agar bunday talablar soliq to‘g‘risidagi qonunchilikda shartlanmagan bo‘lsa.

Siyosatga rioya etilishi uchun mas’ul bo‘lgan mansabdor shaxslar ro‘yxati.

Soliq solish maqsadlarida alohida-alohida hisob yuritish tartibi, agar bunday hisob yuritish majburiyati SKda nazarda tutilgan bo‘lsa.

Soliq to‘lovchi tomonidan foyda solig‘ini hisobga olish uchun sarflarni xarajatlar sirasiga kiritish, shuningdek ularni QQSga olib borish uchun tanlangan usullar.

Xedjirlanadigan tavakkalchiliklarni, xedjirlanadigan moddalarni va ularga nisbatan qo‘llaniladigan xedjirlash vositalarini aniqlash, xedjirlash operatsiyalari, shuningdek boshqa moliyaviy tavakkalchiliklarni amalga oshirish vaqtida xedjirlash samaradorligi darajasini baholash usullari.

Aktivlarning alohida guruhlari va kichik guruhlari bo‘yicha amortizatsiya hisoblash usullari, normalari.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Эгамбердиева С.Р. Молиявий ва бошқарув ҳисоби. Ўқув қўлланма. -Т.: Фан ва технология, 2019. 289 б.
2. Норбеков Д., Мисиров К., Ташманов F. Молиявий ва бошқарув ҳисоби. Ўқув қўлланма. -Т.: Иқтисод-молия, 2018. -194 б.
3. Хасанов Б., Фаниев З., Мухаммедова Д. Бошқарув ҳисоби. Ўқув қоиланма. -Т.: Иқтисод-молия, 2018. -279 б.
4. Каримов А., Курбанбаев Ж., Жуманазаров С. Бухгалтерия ҳисоби. Дарслик. -Т.:Иқтисод-молия, 2019. - 512 б.
5. Каримов А., Курбанбаев Ж., Жуманазаров С., Халилов Ш. Молиявий ҳисоб ва ҳисобот. Ўқув қўлланма. —Т.: Иқтисод-молия, 2018. - 400 б.

6. Lubis, S. N., Menglikulov, B., Shichiyakh, R., Farrux, Q., Ugli, B. O., Karimbaevna, T. M., ... & Jasur, S. (2024). Temporal and spatial dynamics of bovine spongiform encephalopathy prevalence in Akmola Province, Kazakhstan: Implications for disease management and control. *Caspian Journal of Environmental Sciences*, 22(2), 431-442.
7. Abdulazizovich, X. U. B. (2024). MOLIYAVIY AKTIVLAR TASNIFINI TAKOMILLASHTIRISH. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 41(2), 82-86.
8. Abdulazizovich, K. U. (2022). Improving Methodological Approaches to Financial Asset Accounting. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876*, 16(4), 56-62.
9. Abdulazizovich, X. U. B. (2023). XALQARO QOIDALAR ASOSIDA QIMMATLI QOG'ÖZLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH.
10. Abdulazizovich, K. U. IMPROVING THE REFLECTION OF MONEY AND CASH EQUIVALENT IN THE ACCOUNTING BALANCE. *Dear Academicians & Research Scholars*, 55.
11. Abdulazizovich, K. U. B. (2023). Improvement Of Information About Accounts Receivable In Current Assets In The Balance Sheet Based On International Standards. *Journal of Survey in Fisheries Sciences*, 10(2S), 2849-2859.
12. Khakimov, B. J., Alimov, B. B., Kholmirzayev, U. A., & Polechov, A. X. (2013). theory of Economic Analysis. *Tashkent" economics-finance"—2013*.
13. Abdulazizovich, K. U. (2023). POSITIVE ASPECTS OF THE CASH METHOD IN SMALL ENTERPRISES UNDER UNUSUAL CIRCUMSTANCES. *ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 8.071*, 12(11), 38-47.
14. Холмирзаев, У. А. (2023). ДЕБИТОР ҚАРЗЛАРИНИ АЙЛАНИШИ ТАХЛИЛИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ: ДЕБИТОР

ҚАРЗЛАРИНИ АЙЛАНИШИ ТАҲЛИЛИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ.

15. Xolmirzaev, U. A. (2020). Financial assets and improvements of their analysis. *Экономика и социум*, (1 (68)), 102-105.
16. Abdulazizovich, X. U. B. Moliyaviy aktivlar hisobini yuritishda xalqaro standartlar qoidalarini qo'llash masalalari. *Ilmiy monografiya. Toshkent–2023*.
17. Xolmirzayev, U. B., & Ergashev, I. (2024). SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARISH TIZIMI. *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences*, 3(5), 109-115.
18. Хакимов, Б., Талабоев, Х., & Холмирзаев, У. (2021). ВОПРОСЫ УЛУЧШЕНИЯ АНАЛИЗА ОБРАЩЕНИЯ ДОЛГОВОЙ ЗАДОЛЖЕННОСТИ В УСЛОВИЯХ НАПРАВЛЕНИЯ. *Экономика и социум*, (6-2 (85)), 441-446.
19. Xolmirzayev, U. B., & Xakimova, G. Z. (2024). SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI AMALGA OSHIRISHNING MOLIYAVIY MEXANIZMI. *QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 10, 96-98.
20. Abdulazizovich, X. U. B., & Abdullajanovich, U. T. (2024). SANOAT ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYAT YO 'NALISHLARI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 41(5), 17-21.
21. Khakimov, J. B., & Kholmirzayev, A. U. (2021). Positive Aspects Of Cash Method In Small Enterprises In The Context Of Pandemic. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, 12(7).
22. Abdulazizovich, X. U. B., & Muhabbat, N. (2024). INCREASING COMPETITIVENESS IN THE COMMODITY MARKET IN INDUSTRIAL ENTERPRISES. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 42(1), 197-206.
23. Холмирзаев, У. А., & Самижонова, Ш. С. (2022). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОТРАЖЕНИЯ ДЕНЕГ В БУХГАЛТЕРСКОМ БАЛАНСЕ. *Экономика и социум*, (5-2 (92)), 755-766.

24. Холмирзаев, У. А., & Камолдинов, О. О. (2022). АСПЕКТЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРЕДСТАВЛЕНИЯ ИНФОРМАЦИИ О ДЕБИТОРСКОЙ ЗАДОЛЖЕННОСТИ ПО ОБОРОТНЫМ СРЕДСТВАМ В БУХГАЛТЕРСКОМ БАЛАНСЕ. *Экономика и социум*, (5-2 (92)), 767-779.
25. Убайдуллаев, Т., & Холмирзаев, У. (2019). ФАКТОРЫ И ТЕНДЕНЦИИ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА. *Мировая наука*, (1 (22)), 299-302.
26. Gulshirin, J., & Abdulazizovich, X. U. B. (2022, March). INCREASING THE EFFICIENCY OF INVESTMENT IN THE DEVELOPMENT OF EXPORT DIVERSIFICATION IN THE REGION. In *Conference Zone* (pp. 277-281).
27. Khakimov, B., & Kholmirzayev, U. (2020). Improving Cash Accounting And Analysis On The Basis Of International Experiences. *International Finance and Accounting*, 2020(1), 18.
28. Hakimov, B., Yunusov, M., & Holmirzayev, U. (2018). Elaboration of The Balance Sheet Liquidity Analysis-Requirements of The Period. *International Finance and Accounting*, 100.
29. Xolmirzaev, U. A., & Juraev, E. S. (2020). Problems of improvement of debtor debt debt analysis. *Мировая наука*, (1 (34)), 100-105.
30. Sirojiddinov, I., Xolmirzaev, U., & Axmadjonova, M. (2021). THE NEED AND FACTORS TO ACCELERATE THE DEVELOPMENT OF PRIVATE ENTREPRENEURSHIP. *Интернаука*, (21-5), 14-16.
31. Камолов, А. А., & Холмирзаев, У. А. (2016). Малый бизнес и частное предпринимательство в Узбекистане. *Вопросы экономики и управления*, (5), 182-184.
32. Abdulazizovich, X. U. B., Qutbiddinovich, S. I., & Sobirjon o'g'li, J. E. (2021). Positive aspects of the cash method in small businesses in a pandemic environment. *American Journal of Economics and Business Management*, 4(3), 1-8.
33. Abdurahmon, K., & Abdulazizovich, K. U. (2021, December). Some Issues of Improving Securities Accounting. In *Conference Zone* (pp. 129-132).

34. Abdulazizov, K. U., Sherzod, I., & Abdulkhodinevna, S. M. (2022). IMPROVING THE METHODOLOGICAL BASIS OF ACCOUNTING FOR FINANCIAL ASSETS. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036, 11, 34-39.*
35. Kamolov, A. A., & Xolmirzayev, U. A. (2018). Economic Laws And Categories. *Экономика и социум, (2 (45)), 34-36.*
36. Abdulazizovich, K. U. B., & Tursunpolatovna, N. N. (2023). Improving Reflection Of Information About Cash And Equivalents In The Accounting Balance Sheet On The Basis Of International Standards. *Journal of Survey in Fisheries Sciences, 10(2S), 2107-2114.*
37. Abdullaevich, A. O., & Abdulazizovich, K. U. B. (2023). The Importance of Infrastructure in Facilitating the Business Environment. *Journal of Survey in Fisheries Sciences, 10(2S), 3695-3702.*
38. Kholmirzaev, U. B. A., & Ubaydullayev, T. A. (2023). Improving the classification of financial assets according to the economic content. *Educational Research in Universal Sciences, 2(1), 203-209.*
39. Qutbiddinovich, S. I., & Abdulazizovich, X. U. B. (2023). GAAP ASOSIGA QO'YILGAN MOLIYAVIY HISOB KONTSEPTSIYALARI. *Interpretation and researches, 1(3), 42-50.*
40. Kamalov, A. A., & Xolmirzayev, U. A. (2016). Small business and private entrepreneurship in Uzbekistan. *Questions of Economics and Management, 5(7), 6.*
41. Xolmirzaev, U. B. A., & Madaliev, M. R. (2023). MOLIVIY HISOBTLARNING QAYTA KO 'RIB CHIQILISHIDA XALQARO TALABLARGA RIOYA ETILISHI ZARURLIGI. *Educational research in universal sciences, 2(3), 424-432.*
42. Xolmirzayev, U. A., & Xakimova, G. A. (2023). XO'JALIK YURITUVCHI SUB'EKTLARDA DEBITOR QARZLARINING AYLANISHI TAHLILIGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR: XO'JALIK YURITUVCHI

SUB'EKLARDA DEBITOR QARZLARINING AYLANISHI TAHLILIGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR.

43. O'g'li, J. E. S., & Abdulazizovich, X. U. B. (2019). Profits of housekeeping and its development. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 8(4), 419-423.
44. Juraev, E. S., & Xolmirzayev, U. A. (2020). Supporting small business subjects by tax reforms. *Экономика и социум*, (1 (68)), 48-52.
45. Xolmirzaev, U., Juraev, E., & Axmadjonova, M. (2021). The role of accounting in small business management. *Интернаука*, (21-5), 20-22.
46. Juraev, E., Xolmirzaev, U. A., & Rustamova, M. (2021). INCREASING THE EFFICIENCY OF REAL INVESTMENT IN THE CONDITIONS OF ECONOMIC LIBERATION. *Интернаука*, (21-5), 9-11.
47. Juraev, E. S., & Xolmirzayev, U. A. (2019). Profits of housekeeping and its development. *TRANS Asian Research Journals*, 8(4).
48. Xolmirzaev, U. A., Juraev, E., & Jamgirova, G. I. (2021). APPROACH TO ACCOUNTING FOR FINANCIAL ASSETS IN THE ENTERPRISE IN ACCORDANCE WITH INTERNATIONAL STANDARDS. *Интернаука*, (21-5), 17-19.